

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

***№ 5/5 (5) – 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

|                                                                                                                                                                                               |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Abdullaev Ulug‘bek Saydanovich</i><br>O‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR .....                                                                                                  | 10-14 |
| <i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i><br>BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO‘RIQLASH, QOROVULLIKNI O‘TASH VA<br>XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH MASALALARI TAHLILI .....                                | 15-19 |
| <i>Рахманкулова Адолат Хушбаковна</i><br>ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И<br>ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ .....                                                            | 20-25 |
| <i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i><br>O‘ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI<br>VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI<br>VA UNING TARIXIY AHAMIYATI ..... | 26-30 |
| <i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i><br>THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR .....                                                                  | 31-38 |
| <i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i><br>THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE<br>OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....                                                            | 39-42 |
| <i>Nazirov Baxtiyor, Mo‘minov Nodirbek Botir o‘g‘li</i><br>IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING<br>IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI .....                                  | 43-48 |

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

|                                                                                                                                                       |       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Исламутдинов Вадим</i><br>СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ<br>В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....                                               | 49-54 |
| <i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i><br>BENCHMARKING KICHIK INNOVATION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI<br>OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA..... | 55-65 |
| <i>Ульмас Ибрагимов</i><br>ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ<br>МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....                           | 66-75 |

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

|                                                                                                                         |       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Salomova Hakima Yusupovna</i><br>ME‘YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI .....                | 76-83 |
| <i>Djumanioyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i><br>YURIDIK TA‘LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA..... | 84-90 |
| <i>Djo‘raev Anvar Muxamadiyevich</i><br>IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI .....                                  | 91-96 |

|                                                                                                                                                                                    |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Каримова Гулчехра Самадовна</i><br>ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ:<br>МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО-<br>ЭТИЧЕСКИХ..... | 97-101  |
| <i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i><br>ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД<br>НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....                                            | 102-105 |
| <i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i><br>YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....                                                                                | 106-110 |
| <i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i><br>O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....                                                                            | 111-116 |
| <i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i><br>TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....                                                                                   | 117-120 |
| <i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i><br>SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD<br>QADRIYATLARNING TA'SIRI .....                                             | 121-125 |
| <i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i><br>ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT<br>VA SAN'AT FALSAFASI .....                                                | 126-130 |
| <i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i><br>ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ<br>О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....                                              | 131-135 |
| <i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyeva</i><br>EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....                                                                                          | 136-139 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                                               |         |
| <i>Muqumova Dilafruz</i><br>IRFONII SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI<br>MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....                                                 | 140-147 |
| <i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i><br>TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....                                                                                                     | 148-159 |
| <i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i><br>ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS<br>OF METAPHORICAL INNOVATIONS .....                                          | 160-163 |
| <i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i><br>FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY<br>TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....                                                             | 164-168 |
| <i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i><br>TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING<br>O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI .....                              | 169-172 |
| <i>Berdikulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i><br>BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI:<br>O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA .....                                | 173-177 |
| <i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i><br>FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....                                                                              | 178-182 |

|                                                                                                                                                            |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Яркулова Фотима Усмановна</i><br>ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....                                                                                      | 183-186 |
| <i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i><br>O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA<br>KELTIRUVCHI VOSITALAR.....                | 187-190 |
| <i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i><br>THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART"<br>IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"..... | 191-195 |
| <i>Yuldasheva Kamola</i><br>SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN<br>PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....                                               | 196-202 |
| <i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i><br>HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....                                                         | 203-206 |
| <i>Kamola Hatamova</i><br>HUIJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....                                                                        | 207-210 |

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

|                                                                                                                                                                 |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i><br>PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI<br>BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI ..... | 211-216 |
| <i>Mamatmurodov Farrux</i><br>METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES.<br>INTERNATIONAL EXPERIENCE .....                            | 217-222 |
| <i>Муталипова Лола Фархадовна</i><br>СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО<br>ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....                                   | 223-234 |
| <i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i><br>ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .                                                         | 235-241 |
| <i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i><br>RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....                                                    | 242-246 |

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

|                                                                                                                                                            |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i><br>RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI<br>MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI..... | 247-252 |
| <i>Namozova Dilorom Tursunovna</i><br>MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI<br>RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI .....                    | 253-261 |
| <i>Давыдова Руфина Артуровна</i><br>РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ<br>СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ .....                                 | 262-266 |
| <i>Gaziev Baxromjon Valievich</i><br>OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI .....                                                       | 267-273 |



|                                                                                                                                                                           |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i><br>DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:<br>O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....                         | 274-279 |
| <i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i><br>TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING<br>KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:<br>AMALIYOT VA TAJRIBA..... | 280-286 |
| <i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i><br>MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA<br>QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....                        | 287-290 |
| <i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i><br>IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI .....                                                           | 291-295 |
| <i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i><br>TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI .....                                                       | 296-301 |

**Received:** 2 June 2025  
**Accepted:** 15 June 2025  
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

## **CHALLENGES IN DEVELOPING FAMILY BUSINESSES IN UZBEKISTAN**

**Taylyakova Feruzakhon Sultanovna**

Senior lecturer,  
Department of Languages and Humanities,  
Andijan State Technical Institute

**Abstract.** This article examines the development of the entrepreneurial environment, family business, and the active study of family entrepreneurship issues in contemporary scientific research. Family business is highlighted as a specific field of scientific research closely related to socio-economic and socio-psychological relations in society. The importance of private property and the middle class in civil society is emphasized. It is noted that private property is the foundation of a market economy and, simultaneously, the material basis of civil society. Aspects ensuring the social effectiveness of family entrepreneurship are described.

**Keywords:** entrepreneurship, social support, subject, personal development, kinship relations, private property, production, social stability, economic structure, small business, employment, income growth, collective relations.

## **O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI**

**Taylyakova Feruzaxon Sultanovna**

Andijon davlat texnika instituti  
"Tillar va Gumanitar fanlar"  
kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, oilaviy biznes, oilaviy tadbirkorlik muammosi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda faol o'rganilishi, oilaviy biznes ilmiy tadqiqotlarning o'ziga xos sohasi bo'lib u jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik munosabatlar bilan chambarchas bog'liqligi, fuqarolik jamiyatida xususiy mulkchilik, o'rta qatlamlar asosiy o'rinni egallashi masalalari yoritilgan. Xususiy mulkchilik bozor iqtisodiyotining asosini va ayni paytda fuqarolik jamiyatining moddiy negizini tashkil qilishi, oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy samaradorligini ta'minlaydigan jihatlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, subyekt, inson kamoloti, qarindoshlik, xususiy mulkchilik, ishlab chiqarish, ijtimoiy barqarorlik, xo'jalig tuzilishi, kichik biznes, bandlikn. daromadlarni oshirish. jamoaviy munosabatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N17>

### **KIRISH**

Tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, oilaviy biznes, oilaviy tadbirkorlik muammosi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda faol o'rganilmoqda. Aholi bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biriga aylangan zamonaviy jamiyatda bu muammo falsafiy tadqiqotlarning aloxida yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Aholini aniq yo'naltirilgan asosda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ko'p jihatdan hududda xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirishga bog'liq. Oilaviy biznes bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar o'z oilalaridan tashqari shu hududda istiqomat qiluvchi boshqa fuqarolarning ham ijtimoiy manfaatlariga xizmat qiladilar. Mahallada tashkil etilgan

tadbirkorlik sub'yekti aholi uchun qulayliklar yaratish barobarida, ularni foydali mehnatga jalb etish imkoniyatini ham kengaytiradi. Ana shu nuqtai nazardan olib qaralsa, mahalla kichik biznesning o'zimizga xos milliy yo'nalishi — oilaviy tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun eng qulay maskan sanaladi. Oilaviy biznes-bu ma'lum bir oilaga yoki bir nechta oilalarga mansubligi bilan tavsiflangan tijorat faoliyatining o'ziga xos turi bo'lib, uning a'zolari bir-biri bilan sulolaviy nikohlar, qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan yoki o'zaro kelishuv, norasmiy aloqalar asosida birlashgan ushbu biznesning egalari va ijrochilaridir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid munosabatlarning ilk unsurlari Avestoda oila muqaddas institut sifatida talqin etilib, kishi "o'z hunariga ega bo'lishi va mehnat qilishi insonni axloqiy jihatdan poklaydi"[1]. deb hisoblangan. Konfutsiyning "Fozil insonni ko'rganda undan namuna olishni o'yla, fazilatsiz kishini ko'rganda undagi kamchiliklar senda ham bormi yo yo'qligi haqida mulohaza qil," — degan fikrlari[2].

Antik davr faylasuflari jamiyat va oila munosabatlariga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning qarashlari oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Aflotun o'zining "Davlat" asarida ideal jamiyat tuzilmasini tasvirlab, unda oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini muhokama qiladi. Aflotun oilaning jamiyatdagi o'rni haqida shunday yozadi: "Agar biz jamiyatda adolatni qaror toptirmoqchi bo'lsak, har bir kishi o'ziga tegishli vazifani bajarishi kerak.

Sharq mutafakkirlari oilani jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida ko'rib, uning axloqiy, ma'naviy va iqtisodiy jihatlariga alohida e'tibor qaratganlar. Abu Nasr Forobiy inson kamoloti va baxti haqida so'z yuritarkan, oilaviy tarbiyaning ahamiyatini ta'kidlaydi[3]. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida ayol shaxsining komilligi, sabr-toqat va kamtarlik kabi fazilatlarni oilaviy tarbiya orqali shakllantirish mumkinligini yozadi[4]. Ibn Sino axloqiy tarbiyaning asoslarini oilada ko'radi va shaxsning ma'naviy kamolotini oilaviy muhit bilan bog'laydi[5]. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida oilaviy tarbiyaning jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni shakllantirishdagi rolini yoritadi[6]. Alisher Navoiy insonparvarlik va komil inson g'oyalarini ilgari surib, oilaning bu boradagi ahamiyatini ta'kidlaydi[7].

MDH mamlakatlari olimlaridan mavzuning iqtisodiy tomonlarini Li Baotszyan, E.V.Romanenko, V.P.Samarina, G.V.Cherezov, E.A.Karpov, V.V.Sinyavskaya, R.R.Versotskiy, I.Yu.Smirnova[8], muammoning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini A.Akmatalliev V.Sobkin, I.Smirnova, G.Kalieva, Z.Bekmuratova, A.Zinoviyev, S.Averintsev, G.Esim, A.Qunanbayuli, M.Shakuri, G.Brutyayev[9], va boshqalar tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini hamda muhim omillarini o'rganganlar.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini S.G'ulomov, Q.Muftaydinov, M.Eshov, M.Ibragimova, K.Kurpayanidi, M.Ashurov[10]. ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Mavzuning aynan, ijtimoiy-psixologik, pedagogik va iqtisodiy xususiyatlarini, amaliyotchi olimlardan M.Ortiqova, Sh.Quvondiqov, D.Yuldashev, G.Ochilova, O.Pardayeva tadqiq etishganligi bilan izohlanadi[11].

O'zbek taniqli faylasuf olimlaridan Q.Nazarov, N.Shermuhamedova, I.Soifnazarov, N.Hakimov, Z.Davronov, L.Muhammadjanova[12]. tadbirkorlik faoliyatining aksiologik va praksiologik xususiyatlarini ochib berganlar, yangi avlod mahalliy faylasuflaridan B.Ganiyev,

N.Annayeva, J.Davlatov, A.Sayitxonov, A.Raxmanov, A.So'fiyev va boshqalarning tadqiqotlarini mavzuga yaqinligini keltirishimiz lozim[13].

### **TADDIQOT METODLARI**

Oilaviy biznes ilmiy tadqiqotlarning o'ziga xos sohasi bo'lib u jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda ota-onalik va nikoh rishtalari, oilaviy qarindoshlik natijasida shakllangan ijtimoiy jamoa oilaviy biznesning ichki tajribasi uning rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy tajribasini takomillashtirib boradi va davriy ravishda yangilanib boradi. Shu bois bugungi kunda dunyoda oilaviy biznesning umumiy qabul qilingan ilmiy ta'rifi mavjud emas. Uni falsafiy nuqtai nazardan insonning o'zini o'zi anglash shakli, qalbning o'ziga xos kayfiyati, ishbilarmonlik romantikasi shakli sifatida ham tavsiflashadi.

Fuqarolik jamiyatida xususiy mulkchilik, o'rta qatlamlar asosiy o'rinni egallaydi. Bunday jamiyatda davlat iqtisodiyotga aralashmaydi. Bunday holat fuqarolik jamiyatining asosiy sub'yekti kichik va oilaviy biznes bo'lgan iqtisodiy soha bilan o'zaro bog'liqligidan guvohlik beradi. Kichik va oilaviy biznes vakillari yirik biznes bilan hamkorlik qiladi, yirik biznesning tegishli ehtiyojlarini qoniqtirish uchun xizmat qiladi. kichik va oilaviy tadbirkorlik vakillari innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga oson va tez tadbiri qiladi, ular o'zgarib borayotgan sharoitga tez moslasha oladi.

Tadbirkorlikning erkinligi va xususiy mulkchilik bozor iqtisodiyotining asosini va ayni paytda fuqarolik jamiyatining moddiy negizini tashkil qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida davlat va tadbirkorlik turli funktsiyalarni bajaradi. Davlat ishlab chiqarishning umumiy sharoitlarini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Davlatning birinchi darajali vazifasi ishlab chiqarish sohasidagi faollikni maksimal darajada rag'batlantirish, tadbirkorlik uchun eng qulay sharoitlarni yaratish, aholining bandligi ta'minlash, shu jumladan turmush darajasining yuqori darajada bo'lishini ham kafolatlash hisoblanadi.

Bunday vazifani bajarish uchun soliqlar xazinaga o'z vaqtida tushishi kerak bo'ladi. Soliqlarning asosiy yuki tadbirkorlar yelkasiga tushadi. Tadbirkor imkon boricha ko'proq foyda olishga intiladi. Bundan chiqadigan xulosa shundan iboratki xo'jalik yuritishning mazkur usulida tadbirkor ham yollanma xodim ham yuksak mas'uliyatga intiladi. Shunday qilib fuqarolarning turmushi yuksak andozalar darajasida bo'lishini ta'minlaydigan xo'jalik yuritish tartibi shakllanadi.

"Oilaviy tadbirkorlikning O'zbekiston iqtisodiy hayotidagi o'rni va roli, avvalo, mamlakatning demokratik taraqqiyot yo'lidan borayotgan rivojlanish strategiyasi bilan bevosita uzviy bog'liqdir. Chunki milliy xavfsizlik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va iqtisodiy mustahkamlik ko'p jihatdan jamiyatda o'z iqtisodiy manfaatlariga ega bo'lgan, ijtimoiy jihatdan faol, barqaror o'rta sinfnig shakllanishi va rivojlanishiga tayanadi. Mazkur o'rta sinf esa asosan kichik biznes subyektlari, xususan, oilaviy tadbirkorlar tomonidan tashkil etiladi va qo'llab-quvvatlanadi. Shu ma'noda, oilaviy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi omil, balki ijtimoiy barqarorlik va fuqaro jamiyatining tayanchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu esa uni nafaqat iqtisodiy-iqtisodiyotshunoslik, balki falsafiy jihatdan ham tahlil qilishni zarur qiladi[14].

O'zbekiston Respublikasida "Tadbirkorlik faoliyatini erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi (yangi taxrir) qonunining 7-moddasiga ko'ra, "jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat va

dehqon xo'jaligi shakllarida amalga oshirishi mumkin. Jismoniy shaxslar yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat shartnomasining taraflari bo'lishi mumkin. Oilaviy tadbirkorlikning amalga oshirilishi, oddiy shirkat va dehqon xo'jaligi tuzilishi, faoliyat ko'rsatishi hamda faoliyatining tugatilishi bilan bog'liq munosabatlar qonunchilik bilan tartibga solinadi"[15]-deyilgan.

Tadbirkorlikning tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasida uch shakl mavjud: individual oilaviy korxona; sheriklik korxonasi; shirkat yoki hissadorlik jamiyati.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ".....oilaviy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Xususan, hozirda tegishli dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga xar yili 1 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag'lar yo'naltiryapmiz. Natijada bugun xar bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Biroq, kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, zarur sharoitlarga ega qulay muhit yaratish borasida hali qiladigan ishlarimiz ko'p.

Yurtimizda kichik biznes infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, "Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat banki yangitdan tashkil etildi. Bundan asosiy maqsad ustuvor ravishda kichik biznes subyektlari loyihalarni moliyalashtirish va ularga kompleks xizmatlar ko'rsatishdan iborat. Kichik tadbirkorlik subyektlariga biznes loyihalarni ishlab chiqish, moliyalashtirish va ishga tushirish uchun ko'maklashish, ularga konsalting xizmatlarini ko'rsatishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashkil etilayotgan 14 ta kichik biznesga ko'maklashish markazlarining o'rni ham kattadir" [16] -deb ta'kidladi.

Individual oilaviy korxona tadbirkorlikning eng ko'p tarqalgan shakli bo'lib, bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda miqdoriy jihatdan u ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan, AQShda bunday korxonalarning soni 20 mln.dan ortiq. Oilaviy korxona boshlig'i ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy resurslar va ishlab chiqarish vositalariga ega bo'ladi (yoki ijaraga olishi mumkin). U korxona faoliyatini shaxsan o'zi nazorat qiladi.

Oilaviy tadbirkorlik an'anaviy tarzda muvaffaqiyatli tarzda rivojlanib kelayotgan sohalar mavjud. Bular savdo, xizmat ko'rsatish sohasi va qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Mamlakatimizda ko'plab asrlar davomida rivojlanib kelgan ana shu sohalar oktyabr to'ntarishidan keyin barbod qilindi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, bu sohalaridagi oilaviy tadbirkorlik qayta tiklandi va hozirgi kunga kelib, tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy samaradorligini ta'minlaydigan jihatlar quyidagilarda ko'rinadi:

#### 1. Bandlikni ta'minlash

Oilaviy tadbirkorlik ishsizlik darajasini pasaytirishga yordam beradi, chunki oila a'zolari o'z mehnat salohiyatidan samarali foydalanishi mumkin. Oilaviy korxona qaror qabul qilishda juda keng erkinliklarga ega. Nima ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarish va qanday ishlab chiqarishni uning o'zi hal qiladi. Bunday korxonada umumiy majlislarning qarori, sheriklarning fikri, direktorlarning buyrug'ini kutib o'tirilmaydi.

#### 2. Daromadlarni oshirish

Oilaviy tadbirkorlik orqali oila a'zolari barqaror daromad manbaiga ega bo'ladi, bu esa ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Xizmatlar ma mahsulotlarni

ko'paytirish oila a'zolarining jamoaviy mehnati orqali amalga oshiradi. Oilaviy tadbirkorlik o'z iqtisodiy holatlarini yaxshilab daromadlarini oshirish imkonini beradi.

### 3. Ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish

Ko'pincha oilaviy tadbirkorlik mahalliy jamoalar ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulot va xizmatlar taklifini oshiradi. Tadbirkorning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi va uning bozordagi mavqeini mustahkamlaydi.

### 4. Madaniy va an'anaviy qadriyatlarni saqlash

Oilaviy tadbirkorlik milliy hunarmandchilik, kulinariya, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda an'anaviy usullarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Madaniy merosni saqlashga, Uni kelajak avlodga yetkazishga ham xizmat qiladi.

### 5. Jamoaviy munosabatlarni rivojlantirish

Oilaviy tadbirkorlik oila a'zolarini bir maqsad atrofida birlashtiradi, jamoada o'zaro ishonch va ko'mak muhitini shakllantiradi. Jamoaviy munosabatlarni rivojlantirish nafaqat oilaviy tadbirkorlikning samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bu esa keng jamoat manfaatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

### 6. Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish

Oilaviy tadbirkorlar faoliyati mahalliy bozorni rag'batlantiradi, iqtisodiy o'sish uchun turtki beradi va mahalliy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishi aholi turmush darajasining oshishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va hududda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Oilaviy tadbirkorlik bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi.

### 7. Ta'lim va malaka oshirish

Oilalari tadbirkorlik jarayonida yangi bilim va ko'nikmalarni egallash imkoniga ega bo'ladi, bu ularning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ta'lim va malaka oshirish tadbirkorlikni yanada samarali qilish, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, shuningdek, oila a'zolarining shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon oilaviy tadbirkorlikning barqarorligini va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

## XULOSA

Xo'jalik faoliyati yuritayotgan shaxs doimo foyda to'g'risida o'ylaydi, ko'pincha uning ma'naviy-axloqiy masalalar to'g'risida bosh qotirishga vaqti bo'lmaydi. Bir qarashda u tadbirkorning amaliy erkinligidan foydalanadi, lekin oliy ma'naviy mohiyatga har doim ham e'tibor bermayotganday tuyuladi. Aslida uning harakatlari negizida uning ijtimoiy qadriyatlarni, huquqiy me'yorlarni qay darajada o'zlashtirgani va ularga amal qilishi yotadi.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda kichik korxonalar, jumladan, oilaviy korxonalar, korxonalar umumiy sonining yarmidan ko'prog'ini, ba'zi mamlakatlarda esa, 80-90 foizini tashkil qiladi. Bu korxonalardagi ishchi-xizmatchilar soni aholining ish bilan band qismining uchdan ikki qismidan ko'prog'ini tashkil etadi. Bu korxonalarda yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'prog'i ishlab chiqariladi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. *Авесто: Яшт китоби.* (Т.Махмуд таржимаси.) - Тошкент: Шарк, 2001.-Б. 76.
2. *Конфуций Сухбат ва мулоҳазалар.* (Тузувчи ва сўзбоши М.Обидов.) - Тошкент: Янги аср авлоди. 2016. - Б.43.

3. **Abu Nasr Forobiy.** *Fozil odamlar shahri.* (Tarjimonlar: Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon; Mas'ul muharrirlar: Muzaffar Xayrullayev, Muhammadjon Jakbarov.) - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - B. 320.
4. **Abu Rayhon Beruniy.** *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.* (Tanlangan asarlar. I jild.) - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B. 656.
5. Sarvar Saidov Ibn Sino risolalarida ruhiy tarbiya masalalari // International scientific journal of Biruni. 2024.№1.-B.269-273.
6. **Yusuf Xos Hojib.** *Qutadg'u bilig.* (Tarjimon: Boqijon To'xliyev.) - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2007. - B. 199.
7. **Alisher Navoiy.** *Hayrat ul-abror.* (Tarjimon: Porso Shamsiyev.) - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992. - B. 344.
8. Ли Баоцзянь. Роль малого бизнеса в развитии инновационного процесса КНР. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Москва: 2015.;
9. В.С.Собкин Социология образования. - Москва: Наука, 2020. - С. 412.
10. С.С.Ғуломов Тадбиркорлик ва кичик бизнес. - Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2002. - Б. 365.
11. М.Б.Ортиқова Оилада ўсмирларни тадбиркорлик фаолиятига тайёрлашнинг педагогик шарт-шароитлари. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. - Тошкент: ТДПИ 2008. - Б. 155.
12. Q.Nazarov Bilish falsafasi. - Toshkent: Sharq, 2005. - B. 186.
13. Б.С.Ганиев Янги ривожланиш босқичида тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари. Фалс. фан. док. (DSc) дисс. автореф. - Андижон: 2022. - Б. 64.
14. U.P. Umurzakov, A.J.Toshboyev. Kichik biznes va tadbirkorlik / o'quv qoilanma. Toshkent: «Sano-standart», 2014. - 480 bet.
15. Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида. 02.05.2012 йилдаги ЎРҚ-328-сон. 7-н <https://lex.uz/docs/2006789>
16. Ш.Мирзиёев. Ҳозирги замон ва янги Ўзбекистон. Тошкент 2024йил 298-бет

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).